

O‘ZBEK TILI FANIDAN UMUMIY O‘RTA, O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR VA MAKTABDAN TASHQARI DAVLAT TA‘LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINING MALAKA TOIFALARI TEST TIZIMI UCHUN TEST SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi pedagog kadrlarning o‘zbek tili fanidan bilim darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladigan test savollari strukturasi va unga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Mazkur hujjatga aprotatsiyalar natijasida **qo‘shimchalar, o‘zgartirishlar va tuzatishlar** kiritilishi mumkin.

I. O‘zbek tili fanidan bilimlarni baholashning test sinovi tartibi.

Pedagog kadrlarning o‘zbek tili fanidan bilimlarini baholashning test sinovi tartibi kompyuter orqali onlayn tarzida savollarga variant asosida javob berishdan iborat.

II. O‘zbek tili fanidan bilimlarni baholashda test sinovi qamrab olgan o‘zbek tili fanining mazmun sohalari

O‘zbek tili fanidan pedagog kadrlar bilimlarni baholashda test sinovi topshiriqlari umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek tili kursining 5-11- sinflari materiallari hamda malaka talablariga mos va turdosh bo‘lgan kitoblar asosida o‘zbek tili fanining quyidagi mazmun sohalari qamrab oladi:

1. Pedagogning o‘zbek tili fanidan grammatik bilimi tayyorgarligini baholash (Grammatik test) – G
2. Pedagogning o‘zbek tili fanidan lug‘at boyligini baholash (Lug‘at test) – L
3. Pedagogning o‘zbek tili fanidan o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholash (O‘qish testi) –O‘

Bu qismga doir topshiriqlar pedagog — mutaxassislarning egallashi lozim bo‘ladigan, oliy ta‘lim muassasasida o‘quvchilar tayyorlashni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur va yetarli bo‘ladigan o‘zbek tili faniga oid egallangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni baholashga mo‘ljallanadi.

***Eslatma 1:** O‘zbek tili fanining bu mazmun sohalari umumiy holda berilgan, ular o‘zbek tili fanining amaldagi o‘quv dasturi hamda malaka talablaridan kelib chiqib, yanada aniqlashtiriladi, bir nechta mayda mavzularga bo‘linadi va kodifikatorda keltiriladi.*

III. Pedagogning umumiy o‘zbek tiliga oid kompetensiyalarini baholash

O‘zbek tili fanidan bilimlarni baholashda pedagoglar test sinovi topshiriqlari yordamida quyidagi ko‘nikma turlari baholanadi:

1. Bilish
2. Tushunish
3. Qo‘llay olish

III. O‘zbek tili fanidan bilimlarni baholashning pedagog kadrlar attestatsiyasi sinovida beriladigan test turlari

O‘zbek tili fanidan bilimlarni baholashning pedagog kadrlar attestatsiyasi test sinovi topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo‘lishi mumkin:

- 1.Y1 - to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test
- 2.Y2 - moslashtirish talab qilinadigan testlar
- 3.Y3- dixotom (“to‘g‘ri – noto‘g‘ri” shaklidagi) test topshirig‘i

Eslatma 2: Ba‘zi test turlari texnik sharoitlar sababli vaqtincha boshqa test bilan almashtirilishi mumkin.

IV. O‘zbek tili fanidan bilimlarni baholashning pedagog kadrlar attestatsiyasi test sinovi spetsifikatsiyasi (formati)

№	Baholanadigan talablar	Topshiriqlar soni	Testlar turi		Ajratilgan vaqt (min)	Murakablik darajasi	Ball
1	Fonetikaga oid testlar	2	1	Y1	1.5	1	2
			2	Y3	1.5	2	2
2	Orfografiyaga oid testlar	4	3	Y1	1.5	1	2
			4	Y1	1.5	2	2
			5	Y2	1.5	2	2
			6	Y1	1.5	3	2
3	Leksikologiyaga oid testlar	4	7	Y1	1.5	1	2
			8	Y1	1.5	2	2
			9	Y1	1.5	2	2
			10	Y1	1.5	3	2
4	Morfemika	2	11	Y1	1.5	1	2
			12	Y1	1.5	2	2
5	Morfologiya	10	13	Y1	1.5	2	2
			14	Y1	1.5	2	2
			15	Y1	1.5	2	2
			16	Y1	1.5	2	2
			17	Y2	1.5	3	2
			18	Y1	1.5	1	2
			19	Y1	1.5	2	2
			20	Y3	1.5	3	2
			21	Y1	1.5	1	2
			22	Y1	1.5	2	2
6	Sintaksis	8	23	Y1	1.5	2	2
			24	Y2	1.5	2	2
			25	Y1	1.5	2	2
			26	Y1	1.5	3	2
			27	Y2	1.5	2	2
			28	Y1	1.5	2	2

			29	Y1	1.5	2	2
			30	Y3	1.5	3	2
7	Uslubiyat	3	31	Y1	1.5	2	2
			32	Y3	1.5	2	2
			33	Y2	1.5	3	2
8	Punktuatsiya	2	34	Y1	1.5	2	2
			35	Y1	1.5	2	2
9	Qiyosiy tilshunoslik	2	36	Y1	1.5	1	2
			37	Y1	1.5	2	2
10	Matn ustida ishlash	3	38	Y1	1.5	1	2
			39	Y1	1.5	2	2
			40	Y2	1.5	3	2
Jami:		40			60		80
				Y1-30	1.5*40=60	1- 8	40*2=80
				Y2-6		2- 24	
				Y3-4		3- 8	

Eslatma 3: Test sinovning yuqorida keltirilgan (testlar soni, turi, ajratilgan vaqti, bali, murakkablik darajasi) ko'rsatkichlariga tajriba-sinov natijalari va ilmiy asosli tahlilidan kelib chiqib, tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Eslatma 4: Qiyosiy tilshunoslik qirg'iz, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq tillari kesimida o'zgaradi.

V. O'zbek tili fani mazmun elementlari kodifikatori

O'zbek tili fanidan bilimlarni baholashda test sinovi topshiriqlarini tuzish uchun o'zbek tili fani mazmun elementlari kodifikatori umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilariga qo'yiladigan o'zbek tili fani o'quv dasturi mazmuni asosida tuzilgan.

O'zbek tili fani mazmun elementlari kodifikatori umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan o'zbek tili fani dasturida ko'zda tutilgan barcha mazmun elementlarini va malaka talablarini qamrab oladi.

Jadvalning birinchi ustunida o'zbek tili fanining mazmun sohalari kodi, ikkinchi ustunda attestatsiya test sinovida baholanadigan mazmun elementi keltirilgan.

T/r	Soha kodi	Milliy test sinovida baholanadigan mavzular ro'yxati
1	101	Fonetika.
2	102	Orfografiya
3	201	Leksikologiya
4	301	Morfemika. So'z tarkibi. So'z yasalishi
5	401	Morfologiya (Mustaqil so'z turkumlari. Ot, sifat)

6	402	Morfologiya (Mustaqil soʻz turkumlari. Son, ravish, olmosh)
7	403	Morfologiya (Mustaqil soʻz turkumlari. Feʼl)
8	404	Morfologiya (Yordamchi soʻz turkumlari va alohida olingan soʻzlar)
9	501	Sintaksis (Teng va tobe bogʻlanish. Soʻz birikmasi sintaksisi)
10	502	Sintaksis (Sodda gap sintaksisi. Gap boʻlaklari)
11	503	Sintaksis (Sodda gap sintaksisi. Uyushgan boʻlaklar, ajratilgan boʻlak)
12	504	Sintaksis (Qoʻshma gaplar sintaksisi)
13	601	Uslubiyat. Nutq madaniyati
14	701	Punktuatsiya
15	801	Qiyosiy tilshunoslik
16	901	Matn ustida ishlash

VI. Oʻzbek tili fanidan bilimlarni baholashning milliy test sinovi topshiriqlarining baholash mezonlari

Har bir test bir xil baholash mezonlariga koʻra baholanadi.

1. Toʻrtta javob variantli, bitta toʻgʻri javobli yopiq testning baholash mezonlari

Agar belgilangan javob toʻgʻri boʻlsa, 2 ball;

Agar belgilangan javob notoʻgʻri boʻlsa, 0 ball.

2. Moslashtirish talab qilinadigan testlar

Agar belgilangan javob toʻgʻri boʻlsa, 2 ball;

Agar belgilangan javob notoʻgʻri boʻlsa, 0 ball.

3. Har bir “toʻgʻri”, “notoʻgʻri” deb belgilanadigan savoldan iborat yopiq test (dixotom)

Agar belgilangan javob toʻgʻri boʻlsa, 2 ball;

Agar belgilangan javob notoʻgʻri boʻlsa, 0 ball.

Oʻzbek tili

№	Para graf	Punkt	Mavzu	Qiyinlik darajasi			Koʻnikma turlari	Test turi	Ajratilgan vaqt (min)
				1	2	3			
1	1	01	Fonetika.	1	1		Bilish, qoʻllay olish	Y1 Y3	1,5
2	1	02	Orfografiya	1	2	1	Bilish, tushunish, qoʻllay olish	Y1 Y2	1,5

3	2	01	Leksikologiy a	1	2	1	Bilish, tushunish, qo‘llay olish	Y1	1,5
4	3	01	Morfemika. So‘z tarkibi. So‘z yasalishi	1	1		Bilish, tushunish, qo‘llay olish	Y1	1,5
5	4	01	Morfologiya (Mustaqil so‘z turkumlari. Ot, sifat)		2		Bilish, tushunish, qo‘llay olish	Y1	1,5
6	4	02	Morfologiya (Mustaqil so‘z turkumlari. Son, ravish, olmosh)		2	1	Bilish, tushunish, qo‘llay olish	Y1 Y2	1,5
7	4	03	Morfologiya (Mustaqil so‘z turkumlari. Fe‘l)	1	1	1	Bilish, tushunish, qo‘llay olish	Y1 Y3	1,5
8	4	04	Morfologiya (Yordamchi so‘z turkumlari va alohida olingan so‘zlar)	1	1		Bilish, tushunish, qo‘llay olish	Y1	1,5
9	5	01	Sintaksis (Teng va tobe bog‘lanish. So‘z birikmasi sintaksisi)		2		Bilish, tushunish, qo‘llay olish	Y1 Y2	1,5
10	5	02	Sintaksis (Sodda gap sintaksisi.		1	1	Bilish, tushunish,	Y1	1,5

			Gap bo'laklari)				qo'llay olish		
11	5	03	Sintaksis (Sodda gap sintaksisi. Uyushgan bo'laklar, ajratilgan bo'lak)		2		Bilish, tushunish, qo'llay olish	Y1 Y2	1,5
12	5	04	Sintaksis (Qo'shma gaplar sintaksisi)		1	1	Bilish, tushunish, qo'llay olish	Y1 Y3	1,5
13	6	01	Uslubiyat. Nutq madaniyati		2	1	Bilish, tushunish, qo'llay olish	Y1 Y3 Y2	1,5
14	7	01	Punktuatsiya		2		Bilish, qo'llay olish	Y1	1,5
15	8	01	Qiyosiy tilshunoslik	1	1		Bilish, tushunish, qo'llay olish	Y1	1,5
16	9	01	Matn ustida ishlash	1	1	1	Bilish, tushunish, qo'llay olish	Y1 Y2	1,5
			JAMI	8	24	8			

Eslatma 5. Har bir test topshirig'ini bajarish uchun 1,5 minut vaqt ajratiladi.

Amaldagi darsliklar (2020- 2021 o'quv yili).

VII. Test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O'zbek tili, Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 5-sinfi uchun darslik, Muxitdinova X.S., 2020.
2. O'zbek tili, Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik, Muxitdinova X.S., Avlakulov Y.I., Nuriddinova D.A., 2017.
3. O'zbek tili, Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik, Muxitdinova X.S., Avlakulov Y.I., Nuriddinova D.A., 2017.
4. O'zbek tili, Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik, Muxitdinova X.S., 2019.

5. O‘zbek tili, Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinfi uchun darslik, Rafiyev A., Muhammadjonova G., 2019.
6. O‘zbek tili, Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik, Muxitdinova X.S., 2018.
7. O‘zbek tili, Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan o‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quv-chilari uchun darslik, Muxitdinova X.S., 2018.

WWW.TOI.UZ